# XALQ DEPUTATLARI KITOB TUMAN KENGASHI
# Q A R O R I

2022 - yil 18 - noyabr VI-75-147-4-62-K/22 Kitob tuman hokimligi

## Kitob tumani “Panji” mahalla fuqarolari yig‘inidagi Quyioqboy qishlog‘ini “Qo‘shdaryo” mahalla fuqarolari yig‘ini tarkibiga o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qaroriga asosan Kitob tumani Quyioqboy qishlog‘ini “Panji” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidan chiqarish va Qo‘shdaryo mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga o‘tkazish to‘g‘risida Kitob tumani “Panji” hamda “Qo‘shdaryo” mahalla fuqarolar yig‘inlari raislarining bildirish xatlarini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

**Q A R O R Q I L A D I :**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kitob tumani Quyioqboy qishlog‘ini “Panji” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidan chiqarish va “Qo‘shdaryo” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga o‘tkazish to‘g‘risida Kitob tumani “Panji” hamda “Qo‘shdaryo” mahalla fuqarolar yig‘inlari raislarining bildirish xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Kitob tumani “Panji” mahalla fuqarolari yig‘ini hududidagi Quyioqboy

qishlog‘i “Qo‘shdaryo” mahalla fuqarolari yig‘ini hududiga yaqin joylashganligini hisobga olib, qishloq aholisining “Qo‘shdaryo” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kirish bo‘yicha qilgan murojaati inobatga olinsin.

4. Kitob tumani Quyioqboy qishlog‘i “Panji” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidan chiqarilsin va belgilangan tartibda Qo‘shdaryo mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kiritilsin.

5. Tuman Statistika bo‘limi (G‘.Murodov), Davlat kadastrlar palatasi tuman filiali (I.Yusupov), tuman qurilish bo‘limi (U.Jurayev) boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda Quyioqboy qishlog‘i “Qo‘shdaryo” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga kirganligi munosabati bilan davlat reyestriga, elektron bazaga, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

6. Tuman ichki ishlar bo‘limi (I.Tog‘ayev) mazkur qaror bilan “Qo‘shdaryo” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiga o‘tkazilgan Quyioqboy qishlog‘ida yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks etgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

7. Tuman qurilish bo‘limi (U.Jurayev)ga “Qo‘shdaryo ”mahalla fuqarolari yig‘ini tarkibiga kiritilgan Quyioqboy qishlog‘i atrofida mahalla fuqarolar yig‘ini nomi yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida o‘rnatish topshirilsin.

8. Ushbu qaror rasman e’lon qilingandan so‘ng kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari v.v.b B.Turayev zimmasiga yuklatilsin.

**Sessiya raisi** **Pardayev U.B**

Xalq deputatlari Kitob tuman
Kengashining
2022 yil 18 noyabrdagi
VI-75-147-4-62-K/22-son qaroriga
1-ilova

# M A' L U M O T N O M A

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 48-sonli qaroriga asosan Kitob tumani Quyioqboy qishlog‘ini “Panji” mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibidan chiqarish va Qo‘shdaryo mahalla fuqarolar yig‘ini tarkibiga o‘tkazish to‘g‘risida Kitob tumani “Panji” hamda “Qo‘shdaryo” mahalla fuqarolar yig‘inlari raislarining bildirish xatlari ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddasiga asoslanib ishlab chiqilgan.

Halq deputatlari Kitob tuman Kengashining Kitob tumani “Panji” mahalla fuqarolari yig‘inidagi Quyioqboy qishlog‘ini “Qo‘shdaryo” mahalla fuqarolari yig‘ini tarkibiga o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaror loyixasi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunchilikka va qonunchilik texnikasi qoidalariga to‘liq javob beradi.

Halq deputatlari Kitob tuman Kengashining Kitob tumani “Panji” mahalla fuqarolari yig‘inidagi Quyioqboy qishlog‘ini “Qo‘shdaryo” mahalla fuqarolari yig‘ini tarkibiga o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaror loyixasi 2022-yil 4-oktabr kuni interaktiv portalga muxokoma uchun kiritilgan edi (ID № 69224) interaktiv portalda muxokoma muddati tugaganligi sababli xuquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun tuman Adliya bo’limiga yuborilmoqda.

**Kitob tuman hokimligi Bosh yuriskonsulti,**
**2- darajali Adliya maslahatchisi** **Sh.Eshniyazov**